

# Agrar Ta'lim Tizimida Raqamli Texnologiyalarni Rivojlantirish Orqali Malakali Mutaxassislarni Tayyorlash

*Jo'raev Chorshami Turdimuratovich<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi boshqaruvi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar tuzilmalari bilan bog'liq bo'lgan masalalar, shuningdek qishloq xo'jaligi boshqaruv tizimida axborot kommunikatsiya va raqamlashtirish texnologiyalarining jadal sur'atda joriy etilib borilishini o'rganish hamda agrar sohani yetakchi kadrlar bilan ta'minlash masalalari muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, boshqaruv tizimi, axborot-kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, geoaxbrotlar tizimi, aqlli qishloq xo'jaligi, raqamlashtirish, innovatsion resurstejamkor texnologiyalar, malakali kadr.

Har qanday mamlakat raqobatbardoshligi o'sib borishining ahamiyatli omili uning bosqichma-bosqich innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishi bilan asoslanadi. Bugungi kunda O'zbekiston respublikasida ilmfan, ta'lim va ishlab-chiqarishning yanada keng integratsiyasini ta'minlash, yangi bilimlarni yaratish va qo'llash, innovatsion texnologiyalar, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda agrar sohani rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari sohaning eng quyi bo'g'inlarigacha yetib bormasdan, yillar davomida o'z yechimini topa olmayotgan muammolar qishloq xo'jaligi sohasining yanada jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Keyingi yillarda cheklangan suv zaxiralaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlari biofondini tiklash, sho'rlangan va eroziyaga uchragan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish, ekotizimlar biologik xilma-xilligini saqlab qolish, «yashil energetika» va agrotexnologiyalar kabi muhim yo'nalishlarda ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar transferini samarali yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Bunday dolzarb global muammolarni yechish uchun investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ilmiy salohiyatni yangi bosqichga ko'tarish hamda ishlanmalarni amaliyotda qo'llashga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga kirib bordi va uning ko'lami kundan-kun kengayib bormoqda. Globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish umumdavlat darajasidagi vazifaga aylandi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va yanada rivojlantirish bo'yicha aniq kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son farmoni qabul qilinib, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini

<sup>1</sup> Qumqo'rg'on agrotexnologiyalar texnikumi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari



bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishni va keng joriy etilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli industriyani, raqamli ta’limni, raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish chora-tadbirlar belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarining ijrosini agrar sohada ta’minlash maqsadida sohani raqamlashtirishning ustuvor vazifalari o‘z ifodasini topgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-son qarori qabul qilindi.

Shu bois raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga, agrar soha boshqaruv tizimida hamda mavjud yer, suv, moddiy texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlovchi “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkil etilib, unga agrosanoat majmuida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, ta’minotchilar hamda qayta ishlash tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi platforma bo‘lib xizmat ko‘rsatuvchi “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimini yuritish vazifasi yuklatildi.

Yangi asr rivojlanishi ilm fanning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi, fan taraqqiyoti kadrlarga talab ortib borishi har bir soha uchun yosh, qobiliyatli, o‘z sohasining professionallari kerakligini ko‘rsatib bermoqda. Xuddi shuningdek, agrar sohada ham ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ilg‘or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-sonli “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrdagi 788-sonli “Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish orqali qishloq xo‘jaligi sanoat darajasiga olib chiqish hamda sohaga yuqori malakali tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Agrar sohani yetakchi kadrlar bilan ta’minlashda aholining doimiy o‘zgarib turadigan kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashishi, individual intilishlarga muvofiq doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini ta’minlash, jamiyatning ta’lim resurslarini oshirish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat olib borishi zarur. Ammo, agrar ta’lim yo‘nalishlarini raqobat muhitida to‘la javob bera oladigan qilib o‘qitish, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Shu bois, agrar ta’lim muassasalari oldida o‘quv jarayonlarini olib borishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

**Birinchiidan:** mashg‘ulotlar olib borilishida haddan ziyod ko‘p qismining nazariy yo‘nalishga bog‘liqligi. Bu ta’lim muassasasini bitiruvchisining bevosita ish joyida moslashish jarayonining murakkablashishiga ta’sir qiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bitiruvchilarning ish joylarida moslashishining qiyinchilikka duch kelishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashning asosiy yo‘nalishlarini tushuna olmasligi.

**Ikkinchiidan:** ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini maktablar, texnikumlar, oliy ta’lim muassasalarida ham yuqori samarali, zamonaviy o‘quv jarayonini olib borish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalar,



asbob-uskunalar, VR/AR uskunalari, o'quv-laboratoriya jihozlari, o'quv adabiyotlar yetishmasligi to'g'ridan-to'g'ri ta'lim sifatiga ta'sir qilishi aks etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quv jihozlarining eskirganligi yangi texnologiyalarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonini yildan-yilga pasayishiga olib keladi.

**Uchinchidan:** ta'lim va fan sohasini yetarli darajada moliyalashtirmaslik, oliy ta'lim muassasalaridan tortib eng pastki bo'g'ingacha ta'sir ko'rsatib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda bir qator muammolar bilan birga ta'lim muassasalarining mavqeini pasaytiradi. Bundan tashqari, ta'lim tizimini yetarlicha moliyalashtirmaslik ta'lim darajasining pasayishiga va buning natijasida kadrlar salohiyati va iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib kelishi bilan birga davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, raqamli texnologiyalarning kadrlarni tayyorlashning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi, kadrlar salohiyatini baholash mezonlarini yuqori samarali bo'lishi uchun agrar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish va uni ta'lim tizimida amalga oshirish provard maqsad sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni quyidagi rivojlantirish yo'llarini izchillik bilan amaliyotga joriy etish qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislar tayyorlashning sifat darajasini sezilarli oshirilishiga sabab bo'ladi:

- qishloq xo'jaligida innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash, «aqli qishloq xo'jaligi» (Smart agriculture) va raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega kadrlar tayyorlash;
- o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari va agrotexnologiyalar texnikumlarga o'quv-metodik jihatdan amaliy yordam ko'rsatish;
- zamonaviy o'quv adabiyotlarini xarid qilish hamda shu asosida darsliklar yaratish;
- talabalar uchun SUMMER&WINTER SCHOOL (yozgi va qishqi maktablar)ni tashkil etish, xorijiy tillar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini oshirish;
- kadrlarni mehnat bozorida joyjoyiga oqilona ko'yish, vazifalarni taqsimlash, ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik qilish;
- kadrlar tayyorlashda har tomonlama nazorat, tahlil, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni ta'minlash.

Xulosa qilib o'rnida, mazkur ishlab chiqilgan rivojlantirish yo'llarini bilan ta'lim muassasalari faoliyatini olib borishda tatbiq etilsa, albatta bu o'z natijalarini qisqa muddatlarda ko'rsatib, kadrlar salohiyatini mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar qilib tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, agrar sohani rivojlanishi orqali aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondiradi hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13- dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF5598-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.  
<https://lex.uz/docs/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4795-sonli "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/>



4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 15- dekabrda 788-sonli “Agrar ta’lim tizimining 2030 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/>
5. Teshaboev T. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2019.: 83 bet.

